

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ONA TILI VA O‘QISH” DARSLARINI KREATIVLIK ASOSIDA TASHKIL QILISH USULLARI

<sup>1</sup>Nisanbayeva Akmaral, <sup>2</sup>Tagayeva Jannat

<sup>1</sup>Nizomiy nomidagi TDPU professori

<sup>2</sup>Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10802377>

***Annotatsiya.** Maqolada ta’lim jarayoniga “kreativlik” atamasini kirib kelishining muhim ahamiyat kasb etishi va uning o’qituvchi ijodkorligi bilan bevosita bog’liqligi, o’qituvchining kreativligini ona tili ta’limi bo’yicha zarur o’quv manbalarini yaratish, ona tili ta’limi jarayoni loyihasini tayyorlash, ta’lim jarayonini qiziqarli va jonli tashkil etish, fanni o’qitishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish, ona tili va o’qish savodxonligini o’qitishga doir respublika miqyosidagi anjumanlarda faol ishtirok etishi haqidagi fikrlar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** kreativlik, ta’lim jarayoni, o’qituvchi ijodkorligi, ona tili va o’qish savodxonligi darslari, davlat ta’lim standarti, loyihalashtirish.*

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar dunyoqarashini har tomonlama qaror toptirishda ona tili ta’limi muhim ahamiyat kasb etsa-da, uzoq yillar mobaynida bu jarayon an’anaviy o’qitishga asoslanib kelingan.

Ta’lim jarayoniga “kreativlik” tushunchasining tatbiq etilishi boshqa fanlar qatori ona tili ta’limida ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr talabi hisoblanadi. So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamalakatlarining ta’lim tizimida bu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman, Ali, Treffinger va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalarida ko‘rish mumkin. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning umumiy mohiyatini anglab olish uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui”dir. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Kreativlik (lot. “create” – yaratish, bunyod etish, “creative” –yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarini ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatidagi ijodiy qobiliyati.

Biz noan’anaviy ta’limni tashkil qilishimiz va amaliyotga joriy qilishimiz zarur. Buning uchun avval darsni qanday tashkil etish, nimalarnidir yangilik sifatida ta’lim tizimiga olib kirishimiz va o‘zimizga moslashtirib olgandan keyingina uni quyidagicha o’quvchilarda sinov sifatida qo‘llab ko‘rishimiz kerak:

- 1) ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo‘shqin tashkil etish;
- 2) ona tili ta’limi jarayoni loyihasini tayyorlash;
- 3) ona tili fanidan nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham “Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta’lim sifatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon tajribasida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur” deb alohida uqtirib o‘tilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda tamoyillar bo'lib, 4-tamoyilda o'qish savodxonligida tez, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish kompetensiyalarini shakllantirish, o'quvchilarni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza qiluvchi, keng mushohadali, zukko kitobxon darajasiga olib chiqish, tevarak-atrof va butun dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar to'g'risida o'z fikrini mustaqil ayta oladigan, tanqidiy hamda kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirishga qaratilgan.

Shu jumladan, Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi PISA testlari 15 yoshli maktab o'quvchilarining turli fanlardagi (o'qish, matematika, tabiiy fan) savodxonligini aniqlab olish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bizda ham hozirda ushbu test materiallariga jiddiy tayyorgarlik ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Test materiallari, ayniqsa, o'quvchilarni faqat javob berishgagina emas, savolning bir nechta javoblarini ongida tahlil qilib, keyin javob berishga unfashionable bilan ajralib turadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham sinovdan o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish mazmuni shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuv nafaqat pedagogik texnologiyani tanlashga, balki birinchi o'rinda, o'qituvchining shaxsiyatiga ham bog'liq. Qachonki o'qituvchi o'quvchilarni noodatiy tarzda mushohada qilishga, muammoga turli tomondan qaragan holda yechim topishga o'rgata olsagina, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan pirovard maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. -T.,2022.
2. Y.G'ulomov, I.Rasulov, X.Rustamov, B.Mirzaaxmedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Qo'llanma. Toshkent-1975. 121-bet.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarida-kreativ-salohiyatni-rivojlantirishning-pedagogik-xususiyatlari>.
4. R.M. Salikov The Use Of B. Bloom's Taxonomy Of Educational Goals Of In The Formation Of Linguo-Methodical Competences Of Future Primary School Teachers /R.M. Sadikov// Journal of Contemporary Issues in Business and Government - 2021. - Vol.27, №1 - C.-349-354.